

O'ZBEKISTONDA PENSIYA TIZIMI MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI

Tursunov Zohidxo'ja Orifovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15208707>

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan kundan boshlab, iqtisodiy islohotlar jarayonida asosiy e'tibor ijtimoiy himoyani ta'minlash, aholining turmush darajasini oshirish, aholi o'rtasidagi tabaqalanishning oldini olish hamda kambag'allik darajasini kamaytirishga qaratilgan. Shu maqsadda qator kompleks chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmonida 2023-yil 1-yanvardan boshlab pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdori pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining o'n barobaridan o'n ikki barobarigacha oshirilishi, ayollarga pensiya hisoblashda ularning bolani parvarishlash ta'tilida bo'lish vaqtining hammasini jamlaganda ish stajiga qo'shib hisoblanadigan 3 yillik davrni 6 yilga oshirish, bolalikdan nogironligi bo'lgan bolalarga 18 yoshgacha qaralgan davrni pensiya tayinlashda ish stajiga qo'shib hisoblash, fuqarolarning pensiya miqdorlari mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlariga muvofiq izchil oshib borishini ta'minlash, xalqaro tamoyil va standartlarga muvofiq ko'p bosqichli va davlat tomonidan kafolatlangan pensiya ta'minoti tizimini joriy qilish hamda fuqarolardan ortiqcha hujjatlar talab qilmasdan idoralararo elektron ma'lumot almashinuvi asosida pensiya tayinlash tizimiga o'tish kabi ustuvor vazifalar belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi hamda uning hududiy bo'linmalari tashkil etilgan bo'lib, mamlakatda fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti sohasida yagona elektron baza tizimi shakllantirildi. Soha faoliyatining bosqichma-bosqich takomillashib borayotgani, jamg'armaning hududiy bo'limlari zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlanish darajasining keskin oshgani, shuningdek, pensionerlar va nogironlarni manzilli himoya qilish, ularning turmush darajasi hamda hayot sifatini oshirish borasida qonunchilik bazasi izchil takomillashtirilmoqda.


Bundan tashqari, ijtimoiy xizmat turlarining soni va sifati oshirilmoqda, bu esa aholining ushbu qatlamini har tomonlama qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, pensiya yoshiga yetib, mehnat faoliyatini davom ettirayotgan fuqarolar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, qarilik davrida tayinlanadigan davlat pensiyalariga qo'shimcha ravishda jamg'arma asosidagi pensiya ta'minoti tizimining ahamiyati ortib bormoqda.

Bugungi kunga kelib, ko'plab davlatlar singari O'zbekistonda ham pensiya xarajatlarining daromadlardan tezroq o'sayotgani yaqqol sezilmoqda. Bunga asosiy omil sifatida aholi sonining yildan-yilga ko'payib borayotgani ko'rsatiladi. Shu boisdan ham pensiya jamg'armasi mablag'lari daromad bazasini kengaytirish hamda mavjud mablag'larni samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda Pensiya jamg'armasi mablag'larini yanada ko'paytirish orqali uning barqarorligini ta'minlash maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol qilib,

2019-yil 1-sentabrdan boshlab O'zbekistonda o'zini-o'zi ish bilan ta'minlash legallashtirilganligini misol sifatida keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrdagi "O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu nizomning Pensiya Jamg'armasi daromadlariga ta'siri shundaki, o'zini-o'zi ish bilan ta'minlovchi ish faoliyatlari asosida to'lanuvchi majburiy badalning bir qismi aynan Pensiya jamg'armasi daromadlariga yo'naltiriladi. O'zini ish bilan band etgan shaxslarga bir qancha imtiyozlar yaratilmoqda (1-rasm).



1-rasm. O'z-o'zini ish bilan band etgan shaxslarga yaratilgan imtiyozlar¹

O'z-o'zini band qilgan fuqarolar ma'lum bir miqdorda to'lov to'lab berishi majburiy hisoblanadi va bu mablag'lar eng kam oylik ish haqiga nisbatan koeffitsientlarda belgilanadi (4-jadval).

1-jadval

O'zini o'zi band qilgan fuqarolarga vaqtinchalik mehnat guvohnomasi berilganligi uchun undiriladigan to'lov miqdorlari²

Vaqtinchalik mehnat guvohnomasi quyidagi muddatga beriladi (oylar)	To'lov miqdori (bazaviy hisoblash miqdori baravari)
1	0,5
3	1,4
6	2,6
9	3,7
12	4,5

Bu to'lanadigan mablag'larning maksimal muddati 1 yilni tashkil etib, kelgusi yillarda yoki oylarda uzaytirilishi ham mumkin, buning uchun guvohnoma egasi Bandlikka

¹ <https://pf.ru.uz/> - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi rasmiy veb sahifasi.

² <https://pf.ru.uz/> - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi rasmiy veb sahifasi.

ko'maklashishning hududiy markazlariga borishi va uzaytirish istagi borligini bildiradi va kerakli to'lovni amalga oshiradi.

Ushbu mablag'lar kerakli kategoriyalar bo'yicha taqsimlanadi:


- vaqtinchalik mehnat guvohnomalari berilganligi uchun to'lov undirishdan tushgan mablag'larning 60 foizi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga — o'zini o'zi band qilgan fuqaro tomonidan yagona ijtimoiy to'lovni to'lash hisobiga;

- 20 foizi O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga;

- 20 foizi tumanlar (shaharlar) budjetlariga yo'naltiriladi.

Ushbu guvohnomalardan kelib tushuvchi mablag'lar asosida o'zini-o'zi band etgan shaxslarga pensiya ish staji yozib boriladi. Ro'yxatdan o'tishdan avval fuqaro mehnat faoliyatining qaysi turi bilan shug'ullanishinni aniqlab olishi kerak. Ruksat etilgan o'zini-o'zi band qilish turlari jadvali uncha katta emas va yopiq — ular atigi 24 tani tashkil etadi.

Davlat soliq qo'mitasi 2025-yil 1-yanvar holatiga O'zbekistonda o'zini-o'zi band qilgan shaxslar 4,4 mln. nafardan oshganini ma'lum qildi. Yil davomida ko'rsatkich 76,5 foizga (1,9 mln. nafar) oshgan. Eng yuqori o'sish maishiy xizmatlar hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida kuzatilgan (2-rasm).



2-rasm. 2025-yil 1-yanvar holatiga O'zbekistonda o'zini-o'zi band qilgan shaxslar to'g'risida ma'lumot

2025-yil davomida sohalar kesimida o'sish quyidagicha bo'lgan:

- maishiy xizmatlar — 104,3 foiz (+976 ming nafar, 2025-yil 1-yanvar holatiga 1 mln 912 ming nafar);
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish — 94,6 foiz (+203,1 ming nafar, 417,8 ming nafar);
- axborot-kommunikatsiya — 87 foiz (+55,7 ming nafar, 119,7 ming nafar);
- ijtimoiy yo'nalishdagi xizmatlar — 55,9 foiz (+178,2 ming nafar, 496,9 ming nafar);
- qishloq xo'jaligi xizmatlari — 53,6 foiz (+386 ming nafar, 1 mln 106,5 ming nafar);
- sanoat xizmatlari — 49,6 foiz (+138,9 ming nafar, 418,9 ming nafar).

O'zbekistonda pensiya tizimini isloh qilish masalasi bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib, bu boradagi yondashuvlar rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi asosida qiyosiy tahlil qilinmoqda. Xususan, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan pensiya jamg'armasiga ajratiladigan badallarni proporsional holatga keltirish, nodavlat pensiya ta'minoti bo'yicha huquqiy-me'yoriy bazani yaratish hamda uni amaliyotga joriy etish bugungi kun talablaridandir.

Shuningdek, mamlakatimizga xos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarni inobatga olgan holda, ushbu yo'nalishda samarali islohotlarni amalga oshirish zarur. Yuqorida ko'rsatilgan omillarni chuqur tahlil qilish orqali mamlakat pensiya tizimini isloh qilish bo'yicha yangi imkoniyatlarni aniqlash va ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni. 2022-yil 28-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrdagi "O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizom.
3. Abdurahmonov Q.X., Abdurahmanov X.X. Aholi turmush tarzi va daromadlari. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2011 - 226 bet.
4. Qosimova G.A, Karimova Z.X. Byudjetdan tashqari fondlar. O'quv qo'llanma. -T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2009. - 202 b.
5. <https://pfru.uz/> - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi rasmiy veb sahifasi.
6. <https://gov.uz/oz/soliq> - O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining rasmiy veb sahifasi.